



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 3 726,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1 993,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish


	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>2019-yilning yanvar-martiga nisbatan % da</i>
	<i>2019-yil yanvar-mart</i>	<i>2020-yil yanvar-mart</i>	
I. YaHM I.Yalpi hududiy mahsulot	3 101,4	3 726,9	105,2
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2 916,8	3 584,7	105,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	184,6	142,2	106,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2 916,8	3 584,7	105,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	923,2	1 139,3	104,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	731,5	915,6	109,7
sanoat	534,9	675,6	110,7
qurilish	196,6	240,0	107,0
Xizmatlar	1 262,1	1 529,8	103,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	231,6	266,1	102,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	233,8	267,2	104,6
boshqa xizmat tarmoqlari	796,7	996,5	102,7



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 104,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 31,8 %), sanoatda – 110,7 % (18,8 %), qurilishda – 107,0 % (6,7 %), xizmatlar sohasida 103,0 % (42,7 %) ni tashkil qildi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHM tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,1 % punktga ko'paydi va hisobot davrida 31,8 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 0,5 % punktga oshdi va 25,5 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2020-yilning yanvar-mart oylarida 42,7 % ni tashkil etdi va 2019-yilning mos davri (43,3 %) bilan taqqoslaganda 0,6 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,4 % ni (2019-yilning yanvar-mart oylari - 7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 7,5 % ni (8,0 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 27,8 % ni (27,4 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil
yanvar-mart



2020-yil
yanvar-mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar